

GO'SHT YO'NALISHIDAGI QORAMOLCHILIKDA SUN'IY URUG'LANTIRISHNI REJALI OLIB BORISHNI AHAMIYATI

O.Sh.Matyaqubov

M.M. Tojiboev

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7890933>

Annotatsiya: Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda to'g'ri oziqlantirishni rejali olib boorish va Sun'iy urug'lantirish ishlarini rejali olib borish orqali ko'p sonli avlod olish va ularda tanlash, saralash o'tkazish orqali hayvonlarni foydali jihatlarini mustahkamlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy urug'lantirish, qochirish, naslchilik-seleksiya, poda, konveyr, trixomonoz, vibrioz, brutsellyoz, sil, yuqumli vagnit.

Mavzuning dolzarbliligi: Sun'iy urug'lantirish podani to'ldirishning asosiy usuli bo'lib, nasldor erkak hayvonlardan unumli foydalanish orqali qisqa vaqt ichida nasl sifatini yaxshilash, gibridlash, murtakni ko'chirib o'tkazish, naslsizlikka qarshi kurashish va trixomonoz, vibrioz, brutsellyoz, sil, yuqumli vagnit kabi jinsiy a'zolarining yuqumli-parazitar kasalliklarni oldini olish imkonini beradi. [3]

Sun'iy urug'lantirishning maqsadi chorvachilikda naslchilik va seleksion ishlarni jadallashtirishdan iboratdir. Hayvonlarni mahsuldorlik sifati yaxshilanadi. Sun'iy urug'lantirish ishlarini rejali olib borish orqali ko'p sonli avlod olish va ularda tanlash, saralash o'tkazish orqali hayvonlarni foydali jihatlarini mustahkamlash mumkin. Natijada hayvonlarning o'sish va rivojlanishi, mahsuldorligini oshirish, yangi zotlarni yaratish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularning tannarxini arzonlashtirish imkoniyati yaratiladi. [3]

Chorvachilikda qo'llaniladigan eng asosiy texnologik jarayonlardan biri qishloq xo'jalik hayvonlarini sun'iy urug'lantirish hisoblanadi. Sun'iy urug'lantirish podani to'ldirishning asosiy usuli bo'lib nasldor erkak hayvonlardan unumli foydalanish orqali qisqa vaqt ichida nasl sifatini yaxshilash, gibridlash, murtakni ko'chirib o'tqazish, naslsizlikka qarshi kurashish va yuqumli kasalliklar kabi jinsiy a'zolarining yuqumli parazitar kasalliklarni oldini olish imkonini berdi.

Chorvachilikda sun'iy urug'lantirish rejasini tuzishning maqsadi:

- 1) Chorva-chilikda nasilchilik va seleksiya ishlarini jadallashtirishdan iborat.
- 2) Sun'iy urug'larni yoshiga yetgan g'unajinlarni o'z vaqtida mavsumiy ko'k konveyer davrida sun'iy urug'lantirishni tashkil etishdan iborat.



Xar bir sigir podasi uchun yilliga qochirish rejasi tuziladi. Unda yillning davrlariga qarab qochiriladigan sigir va urg'ochi tanalar soni va qaysi nasldor buqaning urug'i bilan sun'iy urug'lantirilishi yoziladi.

Ushbu reja asosida sun'iy urug'lantirish va tug'ish muddatlari kelishiga qarab sigirlarni xar oylik grafik rejasi tuziladi. Shu bilan birga fermada sigirlarni sutdan chiqarish va bo'g'ozlikka tekshirish grafiklari bo'lishi kerak.

Bunda podadan puchak qilib chiqariladigan (20%) katta va birinchi tuqqan (20%) sigirlar rejasini ham oylar bo'yicha keltiriladi.

Bu ishlarni amalga oshirishda voyaga yetgan urg'ochi tanalarni o'sish va rivojlanishini xisobga olish jurnaliga asosanib 340 kg. tirik vaznga yetib borganlarini sun'iy urug'lantirishga rejalashtiriladi. [1]

Yil boshiga sigir va urgochi tanalar to'g'risida

MA'LUMOTLAR

Hayvonlar turi, yoshi	Oylar bo'yicha bosh soni												Jami
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
1-yoshgacha urg'ochi tanalar	6	14	10	4									34
1-yoshdan katta urg'ochi tanalar	7	15	9	5									36
Urug'lantirish yoshiga yetgan urg'ochi tanalarni sun'iy urug'lantirildi				3	15	13	4						35
Qochirilgan sigirlar				15	37	23	6						81
Jami sigir													

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida podani (to'ldiruvchi) ta'mirlovchi tanalar guruxi qochirilgan guruxlarni e'tiborga olib bo'lajak yilning sun'iy urug'lantirish va tug'dirish rejasi tuziladi.

Ushbu jadval bo'yicha sun'iy urug'lantirishni rejali amalga oshirishda urg'ochi tanalarni o'sish va rivojlanishini nazoratga olinadi. Ularni sifatli servitaminli to'yimli oziqalar bilan oziqlantirib borib kunlik o'sishi va rivojlanishi nazorat qilib boriladi. Urug'lantirish yoshiga yetgan 18-21 oylik va undan katta urg'ochi tanalarni tirik vazni 340 kgdan yuqorilarini aprel oyidan boshlab sun'iy urug'lantirish uchun ajratiladi. [1]



Sun'iy urug'lantirishga ajratilgan urg'ochi tanalarni alohida binoga joylashtirilib to'yimli servitaminli, konsentrat oзуqalar bilan oziqlantirish sxemasi ishlab chiqiladi.

Ko'rsatgichlar	Yoshi oy hisobida						
	19	20	21	22	23	24	25
	O'rtacha rivojlanishi bo'yicha t/v. kg.						
	291	302	312	323	334	345	357
	O'rtacha kunlik semirishi grammda						
350-400				450-500			
Oziqa birligi	5,1	5,2	5,3	5,4	5,5	5,6	6,0
Almashinuvchi energiya MDJ	49,3	50,8	52,4	53,9	55,5	57,0	58,7
Quruq modda (kg)	6,3	6,4	6,5	6,6	6,8	6,9	7,2
Xom protein (g)	690	710	725	740	745	760	875
Xazmlanuvchi protein (g)	450	460	470	480	485	495	570
Xom klechatka (g)	1385	1410	1430	1450	1495	1520	1530
Qand (g)	405	415	425	430	435	445	515
Osh tuzi (g)	39	40	42	44	45	47	50
Kalsiy (g)	41	45	46	48	49	50	52
Fosfor (g)	26	27	28	29	30	30	31
Yod (mg)	1,9	1,9	2,0	2,0	2,0	2,1	2,2
Karotin (mg)	155	160	160	160	165	170	180
Vitamin D, (ming IE)	5,2	5,4	5,6	5,7	5,8	6,0	6,2
Vitamin (mg)	250	255	260	265	275	290	295

Sun'iy urug'lantirishga ajratilgan urg'ochi tanalar va sigirlarni aprel oyidan rejalashtirilsa oзуqa ratsioniga vitaminli ko'k oзуqalar, konsentrat oзуqalar kiritiladi. [2]

Ko'k konveyr davrida urg'ochi tanalarni jinsiy kuyukishi me'yorida bo'ladi.

Rejani tuzish uchun xo'jalikda yuritilayotgan xisob-kitob hujjatlardan o'tgan yilgi urg'ochi tanalarni oylar bo'yicha bosh soni apreldan iyul oyigacha sun'iy urug'lantirish g'unajinlar yanvardan aprelgacha yangi tuqqan sigirlar bosh soni olinadi. Ushbu yuqoridagi ma'lumotlar asosida yangi kelayotgan yil uchun mollarni tug'ish va Sun'iy urug'lantirish rejasi tuziladi.



Ushbu reja asosida yanvar-aprel oylari uchun tug'ish rejasi tuziladi. Tug'ish rejasi aprel-iyul oylarida sun'iy urug'lantirish tana va sigirlar bosh soniga qarab qo'yiladi.

Urg'ochi hayvonlarni sun'iy urug'lantirish davri ko'k konveyr davridagi samaradorligini jinsiy kuyukishi normal bo'lishi shu davrida spermani o'z optimal vaqtida yuborishga bog'liq. Shu davrda sun'iy urug'lantirilgan urg'ochi hayvonlar keying yil boshidan ya'ni yanvar oyining oxiridan tug'ishi boshlanib aprel oyida tug'ish yakunlanadi. Tuqqanidan so'ng 45-60 kun ichida urug'lantirish ularni qisir qolishini oldini olishda asosiy tadbirlardan hisoblanadi. Sigir va tuqqan tanalar tuqqandan so'ng jinsiy a'zolarining qayta o'z holiga kelishi ham uch haftada tiklanadi. Yangi tuqqan urg'ochi hayvonlarni sut mahsuldorligi ham yuqori bo'ladi. Yangi tug'ilgan buzoqlar 10-12 kun onasi bilan og'iz suti bilan oziqlantirilsa 40-45 kun yog'sizlantirilgan va sun'iy sutlar bilan boqilib boriladi.

Yangi tug'ilgan buzoqlar fevral mart oylar bo'yicha 60 kun sutli va vitaminli oziqalar bilan oziqlantirilsa keyin, ko'k vitaminli oziqalar bilan boqish davriga to'g'ri keladi. Bu davrdagi buzoqlarni o'sish rivojlanishi intensive bo'lib remont g'unajinlar o'rtacha 0,500 grammdan semirsa voyaga yetganda (24 oyda) 340 kg. -345 kg. tirik vaznga yetib boradi. [1]

Xulosa

April iyul oyiga sun'iy urug'lantirishni go'sht uchun boqiladigan qoramolchilikda ahamiyati shundan iborat:

- 1) Sun'iy urug'lantirish uchun eng qulay vaqt, jinsiy kuyukish me'yorida bo'ladi.
- 2) Yangi tuqqan urg'ochi hayvonlarni jinsiy a'zolarini qayta o'z holiga kelishi yaxshilanadi.
- 3) Yangi tuqqan sigir va g'unajinlarni sut mahsuldorligi yuqori bo'ladi.
- 4) Tug'ilgan buzoqlarni o'sish va rivojlanishi yaxshilanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib chorvachilik hujjatlarida hayvonlarni bosh sonini ko'paytirish bo'yicha yosh qoramollarni goshtga boqishda yaxshi natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoramolchilik. U.N. Nosirov Toshkent 2001 yil
2. Spravochnik po kormleniyu selskoxozyaystvennix jivotnix. A.M. Venodiktov. Moskva. Rasselxozdat 1983 y
3. Hayvonlarni ko'payish biotexnologiyasi. Sh. B. Ata-Qurbanov, B.M. Eshbo'riyev. Samarqand-2021 yil.